



## TUTUNGAN OILA VA BOLANING IJTIMOIY, PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING PEDAGOGIK MEXANIZMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11105240>

**Dildora Rahimova**

Namangan Davlat Universiteti Tayanch-Doktoranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada ota-onan qaramog ‘isiz qolgan bolalarni tutungan oilaga moslashuvi tizimini takomillashtirish bilan bog ‘liq “ijtimoiy lashuv”, “ijtimoiy ong”, “oilaga munosabat”, “oilaviy hayotga yo ‘nalganlik”, “oilaviy urf-odatlar tizimi”, “tarbiyalanuvchilarda bo ‘lg ‘usi oila a’zosi shaxsiyatini shakllantirish” tushunchalarining mazmun-mohiyatining yoritib berilgan. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash omillari va mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir yondashuvlarning aniqlashtirilganligi, tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir ijtimoiy-pedagogik ish tamoyillarining asoslanganligi haqida fikr yuritilgan.*

### Kalit so’zlar

*Ijtimoiy lashuv”, “ijtimoiy ong”, “oilaga munosabat”, “oilaviy hayotga yo ‘nalganlik”, “oilaviy urf-odatlar tizimi”, “tarbiyalanuvchilarda bo ‘lg ‘usi oila a’zosi shaxsiyatini shakllantirish”.*

### АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается значение понятий «социализация», «общественное сознание», «семейные отношения», «семейная жизнь», «система семейных традиций», «развитие личности члена семьи, разделенного на воспитателей», связанного с совершенствованием системы адаптации семьи к детям, оставшимся без попечения родителей. Рассмотрены факторы подготовки педагогов к семейной жизни и выявлены подходы к повышению эффективности этого процесса, а также принципы социально-педагогической работы по подготовке воспитателей к семейной жизни.

### Ключевые слова

«социализация», «общественное сознание», «семейное отношение», «семейная жизнь», «система семейных традиций», «семейная личность у воспитателей».

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo’lgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g“risida”gi Qaroriga ko’ra tutingan



oila va bolaning ijtimoiy, psixologik moslashuvini ta'minlash maqsadida ijtimoiy, psixologik-pedagogik kuzatib borish mexanizmi - dasturini ishlab chiqish belgilangan. Shunga ko'ra biz, ota- ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tutungan oilaga moslashtirish texnologiyasini ishlab chiqishni maqsad qilib oldik.

Shakllangan shaxsni o'zi yashagan muhitdan boshqa muhitga joylashtirish oson ish emas. Har bir oilaning o'ziga xos an'analari va urf-odatlari mavjud bo'lib, buni har qanday bola qabul qilishi qiyindir. Shunday ekan, oila muhitida yashamagan bolaning oilaga moslashuvi qiyinchilik keltirib chiqaradi.

Ota- ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tutungan oilaga moslashtirishda ijtimoiy va kundalik hayot ko'nikmalarini o'zlashtirishga, ularni fikrlashga, diqqat va xotirasini rivojlantirishga, ichki xavotirlarini yo'qotishga o'rgatishadi. Bolalar uchun qulay muhitni yaratishga yordam beradi.

- tarbiyalanuvchini farzandlikka olgan oilada yashashga tayyorlash ishlarini olib boradilar.

Bundan tashqari, xizmat vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga asosan tarbiyalanuvchini oilaga farzandlikka yoki tarbiyaga (patronat) oluvchi nomzodlarni tanlash yuzasidan quyidagilarni amalga oshiradi:

- nomzodlar bilan suhbatlashish;
- tarbiyalanuvchilarning shaxsiy hujatlari bilan nomzodlarni tanishtirish;
- nomzodlar uchun tarbiyalanuvchilarning kuzatuvini tashkil etish;
- nomzodlarga tarbiyalanuvchini oilaga farzandlikka yoki tarbiyaga (patronat) olish yuzasidan tavsiya berish.[14]

Har bir guruhdha "Oilaviy tarbiya" tarbiyaviy ishlar rejasи yuritilishi muhimdir. Ushbu faoliyat guruh tarbiyachisi tomonidan olib boriladi. Bunda, guruh uchun muhim va dolzarb bo'lgan masalalar hamda har bir bolaning individual imkoniyatlari va yosh davri hisobga olinadi.

Bunday tarbiyaviy ishlarning maqsadi:

- shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish asosida oila rolini shakllantirish;
- tarbiyalanuvchilarni hayotga moslashtirishda, rehabilitatsiya qilishda, ijtimoiy korreksiya qilishda pedagogik va ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish.

Asosiy ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal etishda:

- erkin, bilimli fuqaroni tarbiyalash hamda ularni oila va jamiyatda yashashiga amaliy tayyorlash;
- bola shaxsining individual imkoniyatlarini rivojlantirish va axloqiy-irodaviy fazilatlarini namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ijtimoiy moslashuv jarayonini takomillashtirish;
- bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqini amalga oshirish;
- to'laqonli bo'sh vaqt ni tashkil etish;



- bolaning ijtimoiylashuvida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash; tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiya jarayoni samaradorligini monitoring qilish.

Ijtimoiy-huquqiy va fuqarolik tarbiyasida yuqori axloqiy, mas'uliyatli, tashabbuskor va kompetentli O'zbekiston fuqarosini tarbiyalash yotadi. Milliy-madaniy qadriyatlarni, davlat ramzlarini, bayramlar va an'analarni o'rganish ushbu tarbiyaviy jarayonda aks ettirildi. Bunda adabiyot, san'at, kino, teatr, tasviriy san'at, musiqa kabilar orqali vatanparvarlik va axloqiy sifatlar singdirildi.

Fuqarolik tarbiyasi tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmasini yaratish, mavjud bo'lgan muammolarni hal etish, ijtimoiy faoliyat hosil qilish, o'zining qiziqishlarini namoyon etish orqali shakllantirildi. O'quv mashg'ulotlari bolalarning huquq va majburiyatlar, shuningdek, yetim va ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish hamda o'quvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish masalalarini amaliy hal etish asosida tashkil etildi.

Qo'llanilgan individual va jamoaviy ish shakllari: mehnat ishi, bayramlar, davra suhbatlari, bahsli munozaralar, turli tanlov va musobaqalar, ko'rgazmalar tashkil etildi hamda ekskursiya va taqdimotlar o'tkazildi.

Oila tarbiyasi "Oilaviy klublari" shaklida olib borildi. Ushbu faoliyatning mazmun-mohiyati shundaki, bolalarni oilaviy hayotga va jamiyatga tayyorlashdan iborat.

"Oila vakilini tarbiyalash" dasturi orqali oila va uning vazifalari, oila a'zolarining rollari, oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar shakllantirildi.

Mehnat tarbiyasi va kasbga yo'nalishtirish ishlarida mehnat o'qituvchilar, tarbiyachilar, qo'shimcha ta'lim o'qituvchilar oilaviy mexribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini o'z-o'ziga xizmat qilishga, tikuvchilik, qo'l ishi, hunarmandchilik va shaxsiy uchastkada ishslash kabi mehnat ishlariga o'rgatildi.

Ushbu yo'nalishni yanada samarali amalga oshirish uchun yetim va ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni oilalarga joylashtirish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tayyorlandi. Bolalarga psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish bo'yicha "Oilaviy tarbiya" dasturi ishlab chiqildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzakarimov Boburmirzo Nurmuhamat o'g'li .USMLE - XALQARO SHIFOKOR BO'LISH ASOSI/ International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)/ Volume. 7, Issue 04, April (2024)

2. Ergasheva X.Y. Teaching second language to Very Young Learners // Pedagogical Sciences/colloquim-journal#13(24) ISSN 2520-6990, December, 2018. -



Pages 18-20. (Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrning xalqaro ilmiy-metrik ma'lumotlat bazalari: IndexCopernicus-ruyxat nomidagi birinchi havola raqami-23)

3. Ergasheva X.Y. Bolaga ikkinchi tilni o'rgatishning o'ziga xos xususiyati// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.- №6.- Namangan, 2019. - B. 52-56. (13.00.00. №30)

4. Ergasheva X.Y. Ikkinci tilni o'rgatishni samarali tashkil etishda hissiy muhitning ahamiyati// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.- №4.- Namangan, 2020. - B. 449-453. (13.00.00. №30)

5. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children second languages at home// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. -Namangan, 2020. Maxsus son. - B. 407-410. (13.00.00. № 30)

6. Ergasheva X.Yu. Bolaga ikkinchi tilni o'rgatishning psixologik xususiyatlari// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.-Namangan, 2021. Maxsus son. - B. 826-831. (13.00.00. № 30)

7. Ergasheva X.Yu. Maktabgacha ta'limda ikkinchi tilni o'rgatishning ilmiy-pedagogik asoslari// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.- Namangan, 2022. Maxsus son. - B. 1033-1037. (13.00.00. № 30)

8. Ergasheva X.Y. Communicative approach to second language teaching in preschool education // Horison: Journal of Humanity and Artificial Intelligence#13(24) ISSN 2835-3064. 2023, - Pages 499-502. (Global Impact Factor 9.7)

9. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children foreign languages at home// Мактабгача таълим тараккиётининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари// Фарғона-2019. - С. 166-167.

10. Ergasheva X.Y. Types of thinking: Maktabgacha yoshdagi bolaning umumiyligi muhim kompetensiyalari // Nofilologik yo'nalishlarida chet tilini innovatsion usulda o'qitishning ahamiyati va tarjimonlik mahorati. - Namangan- 2019. - B. 25-28.